



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko'chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2022 йил «26» июль

VI-51-133-8-109-K/22

Ангор туман ҳокимлиги

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 17-yanvardagi 5633-sonli farmonining tumandagi ijrosi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Angor tumanidagi Xalq qabulxonasi mudirining axboroti to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Angor tumanidagi Xalq qabulxonasi va virtual qabulxonasi ishonch telefonlariga 2022 yilining birinchi yarim yilligi davomida 4414 ta murojaatlar kelib tushgan bo'lib, murojaatlarning 339 tasi Angor tuman Xalq qabulxonasi orqali yo'llangan. Shundan 3552 ta murojaat qanoatlantirilgan, 703 ta murojaatlar ko'rib chiqish jarayonida. Murojaatlar mazmunan tahlil etilganda asosiy qismi byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi tuman bo'limi tegishli bo'lib, qolgan murojaatlar asosan tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markazi, tuman Majburiy ijro bo'limi, tuman elektr tarmoqlari korxonasi tuman IIB, tuman prokuraturasi, tuman gaz ta'minoti korxonasi, tuman hokimligi, tuman Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi, tuman Oila va xotin-qizlar bo'limi, tuman Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi, tuman Xalq ta'limi bo'limi hamda tuman tibbiyot birlashmasi mas'ullari tomonidan o'rganilib, ijobiy hal etilgan. Murojaatlarning asosiy masalasi - ijtimoiy nafaqalar, ish bilan ta'minlash, aliment undirish, toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, ichki yo'llarni ta'mirlash, ariqlarni oqova suv bilan ta'minlash, uy-joy bilan ta'minlash, uy-joyini ta'mirlash, davolanishga moddiy yordam, elektr energiya ta'minotidagi muammolar, muxtojlariga bir martalik moddiy yordam, kredit ajratish, "Temir daftar", "Ayollar daftari" hamda "Yoshlar daftari"ga kiritishda amaliy yordam berish to'g'risida.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 yanvardagi "Xududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar faoliyatini yanada

takomillashtirishga doir qo‘shicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4102-sonli qaroriga asosan Angor tumani sektor rahbarlari tomonidan ommaviy qabullar o‘tkazilishi yuzasidan grafik tasdiqlangan. Tasdiqlangan jadvalga asosan har bir sektor rahbari tomonidan reja asosida ommaviy qabullar o‘tkazilgan. Xalq qabulxonasi tomonidan murojaatlar bilan ishlashda qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan tuman prokuraturasi va boshqa tashkilotlarga 3 marta taqdimnoma kiritilib, natijasi bo‘yicha 3 nafar xodimlar nisbatan xayfsan berilgan. Shuningdek, ushbu axborotda “Yuqori Xo‘jaqiya”, “Yuqori Tallashqon”, “Gilambob” mahallalariga olib boruvchi Davlat axamiyatidagi 4N-1597 avtomobil yo‘li, “Abduraxmon ota” qabristoniga boruvchi 4K-610 yo‘lini ta‘mirlash, “Kattaqum” mahallasida elektrlashtirish masalasi, “Qorabog‘”, “O‘zbekiston” va boshqa mahallalar ichki ko‘chalari, “Angor-Navshahar” yo‘lining ta‘mirtalab qismini ta‘mirlash hamda toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash masalasida (“Yu.Xo‘jaqiya”, “Yu.Tallashqon”, “Gulzor”, “Qorasuv”, “Kattaqum” va boshqa mahallalardan) tushgan murojaatlar sabablarini tahlil qilish orqali e‘tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlar va hududlarda yo‘l qo‘yilgan ayrim kamchiliklar to‘g‘risida bayon etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 17-yanvardagi 5633-sonli farmonining tumandagi ijrosi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Angor tumanidagi Xalq qabulxonasi mudirining axboroti yuzasidan deputatlar tomonidan bildirilgan takliflar va fikr-mulohazalar inobatga olinib, xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Angor tumanidagi Xalq qabulxonasi mudiri O‘.G‘afforovning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi 5633-sonli farmonining tumandagi ijrosi bo‘yicha axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Sektor rahbarlari, tuman hokimining tarmoqlar bo‘yicha o‘rinbosarlariga tumandagi boshqa tashkilot va idora rahbarlari bilan birgalikda murojaatlar bilan ishlashda fuqarolarning murojaatlarini to‘liq va sifatli o‘rganish, barcha murojaatlarni chuqur tahlil qilish, murojaatni joyiga chiqqan holda, xususan eng ko‘p kelib tushgan murojaat, muntazam murojaat qiluvchi fuqarolar, uzoq vaqtdan buyon hal etilmay kelinayotgan muammolar mavjud mahallalarda sayyor qabullar

tashkil etgan holda, sifatli va to'laqonli o'rganilishini ta'minlash vazifalari topshirilsin.

3. Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi tuman bo'limi murojaatlarning aksariyat qismi pensiya ta'minoti va miqdori to'g'risida yo'llanayotgani sababli sektorlarda tashkil etilayotgan sayyor qabullarda ushbu masalaga alohida yondashib, murojaatchilar bilan ishlash va natijasi haqida har chorak yakuni bo'yicha Xalq deputatlari tuman Kengashiga axborot kiritilsin.

4. Tuman Majburiy ijro byurosi, tuman Elektr tarmoklari korxonasi, tuman Yo'l qurilishi korxonasi, tuman Gaz filiali, "Mikrokreditbank" Angor filiali, "Agrobank" tuman filiali, "Xalqbanki" tuman filiali, tuman Tibbiyot birlashmasi, tuman Suvoqova DUK, tuman Mahalla va nuroniylarni qo'llab quvvatlash bo'limi rahbarlarining mahallalarda ommaviy va shaxsiy qabullarni tashkil etish, har bir murojaatga jiddiy e'tibor qaratib, murojaatlarni qanoatlantirish va ijobiy hal etishning barcha choralari ko'rsin.

5. Tuman hokimining birinchi va tarmoqlar bo'yicha o'rinbosarlari (O.Mamayusupov, Sh.Rajabova, O.Umarov) "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftar"lariga kiritilgan nogiron, davolanishga muhtoj, og'ir vaziyatga tushib qolgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj, doimiy daromad manbaiga ega bo'lmagan, boquvchisini yo'qotgan, ijtimoiy-huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, shuningdek bilim va kasb-hunarlarini o'rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bor bo'lgan hamda ishsiz yoshlar va xotin-qizlar muammo va murojaatlariga o'z vaqtida yechim topish choralari ko'rsin.

6. Tuman hokimligining matbuot xizmati hamda "Angor yog'dusi" gazetasi tahririyati (G.Jumayeva) murojaatlar va ularning o'rganilishi, hal etilishi bilan bog'liq sayyor qabullar, ommaviy uchrashuvlar va boshqa tadbirlarni o'z vaqtida OAV sahifa va saytlarida yoritib borsin.

7. Ushbu qarorda belgilab berilgan topshiriqlarning bajarilishi bo'yicha tegishli rahbarlar har chorak yakunida tuman Kengashi doimiy komissiyalari yig'ilishida axborot berib borsin.

8. Ushbu qaror ijrosi nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi raisi Yu.Xalimov zimmasiga yuklatilsin.

9. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Hokim



SH.B.ABDULLAYEV